

AMIR TEMUR HAYOTINI O'RGANISHDA JONBOZLIK KO'RSATGAN OLIM

Rustamov Xayotbek

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Turizm yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanlari doktori, sharqshunos, professor Ubaydulla Uvatovning Ibn Arabshoxning "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixidagi taqdir ajoyibotlari)" qo'lyozmasi asosida Amir Temur hayotini o'rganish, uni tatbiq etish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Annotation: This article is based on the study and application of the life of Amir Temur on the basis of the manuscript of Ibn Arabshah "Ajoib al-maqdur fi history Taymur (miracles of destiny in the history of Timur)" by doctor of historical sciences, orientalist, professor Ubaydulla Uvatov.

Kalit so'zlar: Ubaydulla Uvatov, Amir Temur, Ibn Arabshox, tarix,

Qay bir mamlakatda olimlar ardoqlanar ekan, shubhasiz o'sha elga Alloh qut-barakasini ayamaydi. Azal-azaldan o'z zaminida olim-u ulamolarni yetishtirib chiqargan jannatmakon o'lkamizda har qachon ilm ahli uchun keng imkoniyatlar taqdim etilib, e'zoz-u ardoqlanib kelgan. Ana shunday o'zbek farzadnlaridan biri islomshunos olim, arabshunos, manbashunos, sharqshunos, tarix fanlari doktori, professor Ubaydulla Uvatov bo'ladilar. Olimning hayot yo'liga nazar tashlar ekanmiz, doimo ilm-fanga initilib yashaganiga guvoh bo'lamiz.

Ubaydullo Uvatov 1940-yil 23-fevral sanasida Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumani, Pachkamar qishlog'i, chorvador oilasida tavallud topdi. Yoshlikdan o'qish-yozishga qiziqishi baland bo'lgan olim dastlab o'z qishlog'idagi maktabda ta'lim olib, keyinchalik 1969-yilda oliy ta'lim olish uchun O'rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetining arab filologiyasi yo'nalishiga hujjat topshirib, oliygohga qabul qilinadi. Universitetni bitirganidan so'ng bir qator arab mamlakatlari, xususan Misr, Iroq, Liviya kabi davlatlarda tarjimon sifatida faoliyat olib boradi.

Qohira shahrida yashab yurarkan daf'atan "Dor al-kutub va-l-vasaiq al-ilmiyya" qo'lyozmalar fondiga ko'ziga tushadi. Tinib-tinchimagan olim ilmga bo'lgan qiziqishi bois qo'lyozmalar fondiga kirmay o'tib keta olmadi. Fondga saqlanayotgan qadimiy qo'lyozmalarni birma bir ko'zdan kechirar ekan, nigohi XV asr tarixchisi Ibn Arabshox tomonidan o'zi shohid bo'lgan holda yozilgan Amir Temur va temuriylar davrini o'rta asr manbasiga tayangan holda ochib bergan "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixidagi taqdir ajoyibotlari) asarga tushadi. Ayni ana shu ondan olimda sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi.

Qo'lyozmani tadqiq qilar ekan, bir-biridan qiziq, hali hech qaysi manbada uchramaydigan ma'lumotlarga duch keladi. Albatta, Amir Temur to'g'risida arab tilida 20dan o'sha davrda ortiq tarixiy frangmentlar mavjud bo'lishiga qaramay, Ibn Arabshoxning qo'lyozmasi o'zidagi ma'lumotlarning aniq ekanligi, muallif bevosita sohibqiron bilan uchrashganligi bilan ajralib turadi. Yozilish uslubi o'ziga xos, tili murakkab bo'lgan bu qo'lyozmami arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda olim 7 yil ter to'kadi.

Olimning qariyb yarim asrlik qadrdon do'sti, hamkasbi, maslakdoshi professor Ahadjon Hasanov shunday eslaydi: "Aspiranturani o'qib yurgan paytlari Ubaydulla Uvatov Ozarbayjonga safargan borganlarida ozarbayjonlik akademik, qo'lyozmalarni juda yaxshi

biladigan olim, mashhur manbashunos, Sobiq Sovet davrida qo'lyozmalar bo'yicha yuksak olim Ziyo Musayevich Buniyatov bilan uchrashib qoladi. Suhbat asnosida akademik Uvatovdan shu kunlarda nimalar bilan mashg'ul ekanligi to'g'risida so'raydi, Ubaydullo aka Ibn Arabshox qo'lyozmasi ustida ishlayotganini aytadi. Akademik Buniyatov Uvatov qilayotgan ishga Sobiq Sovet davrida hali hech kim qo'l urmaganini, muhim ishning boshini tutganini aytib, olimni maqtab qo'yadi".

Ajdodlarning boy ilmiy me'rosini o'rganish, manbashunoslik sohasi bilan shug'ullanish bir qarashda til bilishning o'zi kifoyadek tuyuladi, biroq, aslini olganda, bu kasb mustahkam iroda, sabot va matonat talab qiladi. Arxivlarda chang bosib yotgan manbalarni o'rganish, tadqiq etish, ularni kelajak avlodga yetkazish oson ish emas. Ubaydulla Uvatov ilmiy faoliyatida o'ziga xosligi uning qamrovi kengligi bilan har vaqt ajralib turgan. Bunday faoliyat uning fikr doirasi kengligi, ilmiy yangilikka intiluvchanligi, doim "kashshof" bo'lishga, yangi "qo'riq yerlar"ni ochishga harakat qilish xarakteriga juda ham munosib¹.

Uzoq yillik izlanishlar, tadqiqotlar, tunni tun demay tarjima ustida mijja qoqmay ishlashlar samarasi vanihoyat ko'rindi – Ibn Arabshox qo'lyozmasining tarjimasi yakunlandi, maqsad - nashr ettirish - amalga oshishiga bir bahya qoldi, hisob. Aspirantura nihoyasiga yetgach, bu noyob asar bo'yicha 1974-yilda filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi. Mazkur dissertatsiya himoyasini o'sha sovet davrida chinakamiga ilmiy jasoat deb aytilish mumkin. Chunki bu davrga kelib, akademik Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomli risolasidan (1968) so'ng yurtimizda temurshunoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib boorish qat'iyon taqiqlanib, birorta ham asar e'lon qilinmagan edi.

Ushbu tadqiqot mustaqillikdan so'ng, 1992-yilda kirill alifbosida, 2018-yilda lotin alifbosida 2ta kitob shaklida nashr etildi. Bu o'zbek temurshunosligiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Ibn Arabshoxning mazkur asari olimning ta'kidlashicha, boshidan oxirigacha arab tilida eng murakkab usul – qat'iy saj usulida bitilgan bo'lib, tarjimasi nihoyatda qiyin kechgan.

Professor Ubaydulla Uvatovning yozishicha, "Ajoib al-maqdur"da hali tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolgan ilmiy, tarixiy, jug'rofiya, madaniy ahamiyatga molik talaygina muammolarning mavjudligi turli soha mutaxassislari, jumladan, tarixchilar, geografiya, san'atshunoslar, tilshunoslar tomonida yanada chuqurroq o'rganilishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, "Ajoib al-maqdur" tarix, etnografiya, falsafa, pedagogika va boshqa ijtimoiy gumanitar yo'nalishlarida alohida ilmiy tadqiq etishni talab qiladi. Shu boisdan olim ushbu asar tarjimasini qayta ko'rib chiqib, 2018-yilda qayta nashr ettirganligi temurshunoslikda katta voqea bo'ldi.²

1996-yil Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan Sohibqironning haqiqiy portretini yaratish konkursida birinchilikni olgan mashhur rassom Malik Nabiyeu ham aynan Ibn Arabshox asari tarjimasidan foydalangan holda Amir Temurning hozirda ommaviy ravishda etalonga aylangan mashhur portretini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Ubaydulla Uvatovning temurshunoslikda 10dan ortiq asarlar yozgan. Olimning kamtarona amalga oshirgan ushbu sarmahsul faoliyati to'g'risida ko'plab maqolalar yozish mumkin, zero olim bu ishlariga butun hayotini, kuch-g'ayratini bag'shida etgan. Siymosidan ma'rifat nuri ufurib turgan olimni tarixni qayta jonlantirgan shaxs, qisqacha qilib aytganda, moziy me'mori, deysish mumkin.

¹ O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Ubaydulla Uvatov (bio-bibliografiya)"// Toshkent-2021

² O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Ilm-u ma'rifatga bag'shida umr. Ubaydulla Uvatov – tarix fanlari doktori, professor"//O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent-2020

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Ubaydulla Uvatov (bio-bibliografiya)"// Toshkent-2021,-32 b.;
2. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Ilm-u ma'rifatga bag'shida umr. Ubaydulla Uvatov – tarix fanlari dokrtori, professor"//O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent-2020.-174 b.;
3. U. Uvatov "Sohibqiron arab muarrixlari nigohida.-T.:”Sharq”. 1997,-160 b.;
4. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixidan. U.Uvatov tarjimasi. – Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.:”O'qituvchi”, 1996, B.24-35;